



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 3 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIysi SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR) .....	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI .....	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI) .....	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI .....	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID .....	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожсамурович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА .....	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI .....	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR .....	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI .....	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	75-82

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	83-96
<i>Abdullahov Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKIOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI .....	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i>	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI .....	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI .....	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldasbayev Azizulloh</i>	
BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH .....	153-158
<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНІ .....	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i>	
OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR .....	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ .....	177-183
<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</i>	
YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	184-193
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i>	
IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'iy INTELLEKTNING INSON SALOHIYATIGA TA'SIRI .....	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i>	
QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i>	
UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH .....	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i>	
ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ .....	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i>	
HAJVİYLIKNING PSIXOLOGİK İJTİMOİY-MADANIY VA ESTETİK XUSUSİYATI .....	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI .....	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i>	
HAKIM TERMİZİYNING FALSAFIY TA'LIMOTI .....	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i>	
SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA	
TEATR SAN'ATINING O'RNI .....	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i>	
IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI .....	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i>	
YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING	
UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI .....	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i>	
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI .....	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i>	
HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING	
HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI .....	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i>	
IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI .....	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i>	
MA'NAVIY MARGINALLASHUVDAN HIMOYALANISHDA XORIJ TAJRIBASI .....	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i>	
JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIYASINING ZAMONAVIY TAHLILI .....	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i>	
YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID	
TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI .....	281-286
<i>Ярлакабов Джамишид Мамасултонович</i>	
СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ	
ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	287-291
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID	
LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI .....	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI	
LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI .....	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK"	
KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI .....	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i>	
ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN	
YANGI BADIY SHAKLLAR .....	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i>	
NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i>	
IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI .....	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i>	
HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI .....	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i>	
STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES .....	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i>	
THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC .....	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i>	
ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA) .....	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI .....	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i>	
CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE .....	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i>	
NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE" .....	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i>	
DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT .....	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i>	
EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHЛИLI .....	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i>	
SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI .....	369-372

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i>	
КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА .....	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i>	
К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ .....	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i>	
QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR .....	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i>	
QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI .....	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i>	
KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI .....	400-407

*Ибрагимова Сабина Эркиновна*  
К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ  
СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО-  
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ..... 408-413

*Avezov Dilshod Sadulayevich*  
MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLİSH MASALALARI  
VA UNING XUSUSIYATLARI ..... 414-418

*Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li*  
VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLİSH  
YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI ..... 419-423

*Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li*  
INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK  
BAZASINING ROLI ..... 424-432

*Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich*  
BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI  
TIZIMINI KUCHAYTIRISH ..... 433-442

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna*  
ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI  
QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 443-449

*Raxmatov Otobek Urinbosarovich*  
“JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI” FANINING BO'LAJAK  
JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI  
TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI ..... 450-455

*Xamroyev Samijon Salimovich*  
SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI  
SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI ..... 456-461

*Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna*  
TALABALARDA INSHONING MAZMUNIY- MANTIQIY BAYON QILINISHIGA  
DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH ..... 462-467

*Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li*  
ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI  
VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI ..... 468-472

*Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna*  
TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHIDLARDAN  
HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI ..... 473-480

*Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,*  
TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA  
ASOSLANGAN YONDASHUV ..... 481-486

*O'tashev Xasan Nematullayevich*  
OLIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI  
SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI ..... 487-492

*Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li*  
BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI  
VA KASBIY FAZILATLARI ..... 493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i>	
O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI .....	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i>	
PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI .....	508-518
<i>Qurbanova Bonu Quvondiq qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KITOFGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i>	
O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI .....	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i>	
BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR .....	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i>	
MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH .....	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i>	
USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE .....	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i>	
O'QUVCHILARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI .....	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i>	
JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH .....	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI .....	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i>	
TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i>	
1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI .....	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i>	
TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	588-593

**Received:** 16 February 2025

**Accepted:** 5 March 2025

**Published:** 20 March 2025

*Article / Original Paper*

## **THE STUDY OF THE DOG MOTIF IN WORLD AND UZBEKISTAN LITERARY STUDIES**

**Alqarov Nazarbek,**

Lecturer of the Department of Philology, Nukus Innovation Institute

Department of Foreign Languages of Tashkent State Transport University

Based on the review of Professor I.T. Rustamov

**Abstract.** The article analyses how the dog motif has been studied in world and Uzbek literature, its symbolic meanings in various cultures and literary movements, and examines the image of the dog in classical literature and modern works, starting from antiquity, from a literary-aesthetic, semantic and psychological perspective. In world literature, the image of the dog is represented as a symbol of loyalty, wisdom and protection, but is sometimes interpreted as a symbol of betrayal and crime. In Uzbek literature, this image is reflected in various ways in folk oral literature, classical poetry and modern prose. The scientific study of the poetic and analytical characteristics of this motif, its formation and transformation in different periods is one of the most relevant topics today.

**Keywords:** dog motif, literary image, world literature, Uzbek literature, loyalty, symbol, poetic interpretation, intertextual analysis, folklore, semiotics.

## **IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI**

**Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li**

Nukus innovatsion instituti Filologiya kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: [alkarovnazarbek@gmail.com](mailto:alkarovnazarbek@gmail.com)

Toshkent davlat transport universiteti Chet tillar kafedrasi  
professori I.T.Rustamov taqrizi asosida

**Annotatsiya.** Ishda it motivining dunyo va o'zbek adabiyotida qanday o'r ganilgani, uning turli madaniyat va adabiy oqimlardagi ramziy ma'nolari tahlil qilinib, antik davrdan boshlab, mumtoz adabiyot va zamonaviy asarlardagi it obrazi adabiy-estetik, semantik va psixologik jihatdan ko'rib chiqiladi. Dunyo adabiyotida it obrazi sadoqat, donishmandlik va himoya ramzi sifatida namoyon bo'lsa, ba'zan xiyonat va jinoyat timsoli sifatida ham talqin etiladi. O'zbek adabiyotida esa bu obraz xalq og'zaki ijodi, mumtoz she'riyat va zamonaviy nasrda turli yo'sinda aks etgan. Ushbu motivning poetik va tahliliy o'ziga xosliklari, uning turli davrlardagi shakllanishi va o'zgarishi ilmiy jihatdan tadqiq qilish bugungi kun dolzARB mavzularidan hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** it motivi, adabiy obraz, dunyo adabiyoti, o'zbek adabiyoti, sadoqat, ramz, poetik talqin, intertekstual tahlil, folklor, semiotika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N44>

**Kirish.** Adabiyotshunoslikda motiv tushunchasi muhim nazariy kategoriya sifatida qaralib, asar mazmuni va g'oyasini shakllantirishda markaziy o'r in tutadi. Motivlar nafaqat syujetni rivojlantirish vositasi, balki muayyan davr va madaniyatning estetik hamda falsafiy qarashlarini aks ettiruvchi element sifatida ham o'rganiladi. Ular adabiy asarlar mazmuni va

strukturasini aniqlash, muallif uslubini tadqiq etish, adabiy jarayonlarni tahlil qilishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida motiv nazariyasining shakllanishi uzoq tarixga ega bo'lib, bu borada G.Frezer, K.Yung, V.Propp, A.Veselovskiy kabi olimlarning tadqiqotlari alohida o'rIN tutadi. Xususan, folklor, mifologiya va badiiy adabiyotda takrorlanuvchi arxetipik obrazlar, syujet tuzilmalari hamda timsollar orqali motiv tushunchasi ilmiy asosda talqin qilingan. G'arb adabiyotida motivlarni psixoanalitik, strukturaviy va intertekstual yondashuvlar asosida tadqiq qilish keng tarqalgan bo'lsa, rus adabiyotshunosligida ular syujet va kompozitsiya elementlari sifatida o'rganilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida esa motiv tushunchasiga e'tibor XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ortib borgan. Ozod Sharafiddinov, Qozoqboy Yo'ldoshev kabi olimlar asarlarida motiv masalasi turli nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Xususan, xalq og'zaki ijodi, mumtoz hamda zamonaviy o'zbek adabiyotidagi motivlarning o'rni, ularning poetik hamda semantik xususiyatlari tahlil etilgan. Bugungi kunda motiv masalasi o'zbek adabiyotshunosligida intertekstual yondashuvlar, semiotik va komparativ tadqiqotlar nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Motiv tushunchasi adabiyotshunoslikda muhim nazariy kategoriya sifatida keng tadqiq etilgan bo'lib, uning turli adabiy maktablar va ilmiy yondashuvlardagi talqini o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Motiv nazariy jihatdan bir qancha ilmiy maktablarda har xil talqin qilingan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida motiv tushunchasi folklor va mifologiya tadqiqotlarida keng qo'llanilgan. Jumladan, Jeyms Freyzerning "*Oltin shox*" (*The Golden Bough, 1890*) [1] asarida mifologik va diniy motivlarning takrorlanishi madaniyat rivojlanishining umumiyligini qonuniyatlar bilan bog'langan.

A.N.Veselovskiy esa motivlarni tarixiy poetika nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lib, uning fikricha, motivlar adabiyotning eng qadimgi qatlamlarini aks ettirib, syujetlarning shakllanishida asosiy rol o'yinaydi. Uning "*Tarixiy poetika*" (Историческая поэтика) [2] asari adabiy motivlar evolyutsiyasini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Strukturaviy yondashuv tarafdori bo'lgan V.Propp o'zining "*Sehrli ertaklar morfologiysi*" (Морфология сказки, 1928) [3] asarida ertaklardagi syujet tuzilishini analiz qilib, ularda doimiy ravishda uchraydigan funksiyalarini aniqlagan. Propp motivlarni syujet tuzilishining asosiy elementlari sifatida ko'rib chiqib, ularning arxetipik xususiyatlarini ochib bergen.

Psixoanalitik yondashuv doirasida esa K.G.Yung [4] va Z.Freyd [5] motivlarni inson ongi va ongsizligi bilan bog'lagan. Yungning "*Arxetiplar va ongsizlik*" (Archetypes and the Collective Unconscious) asarida adabiyotdagi motivlarning inson psixologiyasidagi chuqur ildizlari tahlil qilingan.

Yana bir muhim tadqiqotchilardan biri G.G.Shpet [6.7] bo'lib, u adabiy motivlarni semantik tuzilma sifatida ko'rib chiqqan. Uning fikricha, motivlar badiiy matnda semantik maydon hosil qiladi va intertekstual aloqalarni shakllantiradi.

Bugungi kunda zamonaviy adabiyotshunoslikda motivlarni semiotik va intertekstual yondashuvlar asosida tahlil qilish an'anaga aylangan. Xususan, Yuriy Lotmanning [8] madaniy semiosfera nazariyasi doirasida motivlarning adabiy matndagi belgilar tizimiga aylanish jarayoni chuqur tadqiq etilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida motiv tushunchasi asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanila boshlagan. X.Egamov [9] o'zining adabiy tahlillarida motiv masalasiga e'tibor qaratib, xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz o'zbek adabiyotida uchraydigan asosiy motivlarni ajratib bergen. Uning ishlarida an'anaviy motivlarning o'zbek she'riyatida qayta ishlanishi va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Ozod Sharafiddinov [10] adabiy obraz va motivlar muammosini o'rganib, motivlarning adib poetikasidagi o'rni va funksiyasini tahlil qilgan. Uning ilmiy ishlarida XX asr o'zbek adabiyotida motivlarning qanday o'zgarishi va modernizatsiyasi haqida fikr yuritilgan. Qozoqboy Yo'ldoshev [11] va boshqa tadqiqotchilar ham motivlarning adabiy jarayondagi o'rnini intertekstual hamda semiotik yondashuvlar asosida tadqiq qilgan. Xususan, ularning ishlari orqali mumtoz o'zbek adabiyotidagi diniy, falsafiy va lirik motivlarning shakllanishi va rivojlanishi o'rganilgan.

Hozirgi vaqtida motiv nazariyasi o'zbek adabiyotshunosligida turli zamonaviy yondashuvlar asosida tadqiq qilinmoqda. Jumladan, zamonaviy tahlillar ko'proq strukturalizm, semiotika va komparativ yondashuvlar asosida olib borilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida motivlar strukturalizm, psixoanaliz, semiotika va intertekstual yondashuvlar orqali o'rganilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotshunosligida ularning folklor, mumtoz adabiyot hamda milliy an'analar bilan bog'liq jihatlari chuqr tadqiq etilgan.

G'arbiy adabiyotshunoslikda motivlar ko'proq umumiyligi adabiy jarayonlar, archetypal tizim va universal poetik strukturalar asosida o'rganiladi. O'zbek adabiyotshunosligida esa motivlar asosan milliy adabiy meros va xalq og'zaki ijodi kontekstida tahlil qilinadi. Shu bois, motiv nazariyasining rivojlanishi va ularning tahlil usullari o'zbek adabiyotshunosligida yanada kengaytirilishi, zamonaviy ilmiy metodlar bilan boyitilishi lozim. Bu esa nafaqat o'zbek adabiyotidagi motivlarni chuqurroq anglash, balki ularni jahon adabiyotidagi universal an'analar bilan solishtirish imkonini beradi.

**Muhokama va tahlil.** Adabiyotshunoslikda motiv tushunchasi, ayniqsa, "it" obrazi bilan bog'liq motivlarning tahlili keng qamrovli bo'lib, turli madaniyat va davrlarda u turlicha talqin qilingan. It obrazi ko'pincha sadoqat, himoya, donishmandlik, xiyonat yoki hatto jodugarlik kabi turli ramziy ma'nolarga ega bo'lib kelgan.

It obrazi jahon adabiyotida ko'p yillar davomida turli uslub va yo'nalishlarda namoyon bo'lib kelgan. Antik davr adabiyotida it sadoqat timsoli sifatida gavdalangan. Masalan, Gomerning "*Odyssey*" [12] asarida Odisseyning iti Argos uni yillar davomida kutib, sadoqat timsoli sifatida tasvirlangan. Ushbu motiv keyinchalik G'arb adabiyotida turli shakllarda takrorlangan.

Markaziy Yevropa adabiyotida it obrazi ba'zan negativ tusga ega bo'lган. Masalan, Dante Aligyerining "*Ilohiy komediya*" [13] asarida it jinoyat va xudbinlik ramzi sifatida talqin qilingan. Shuningdek, Uilyam Shekspir asarlarida ham it obrazi ba'zan masxaraomuz yoki negativ ma'noda ishlatilgan bo'lsa-da, ba'zan u himoya va sadoqat timsoli sifatida ham namoyon bo'ladi.

Rus adabiyotida it obrazi ko'pincha inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab aloqalar ramzi sifatida tasvirlanadi. Masalan, Anton Chexovning "Kuchuk yetaklagan xonim" [14] hikoyasida it bosh qahramonlarning hayotini o'zgartiruvchi vosita sifatida gavdalanganadi. Shu bilan birga, Mixail Bulgakovning "*It yuragi*" (Собачье сердце) [15] asarida it obrazi falsafiy va ijtimoiy tahlilning muhim elementi sifatida qo'llangan.

Zamonaviy G'arb adabiyotida it motivi, ayniqsa, postmodernistik asarlarda inson ongi va ongsizligi, sadoqat va xiyonat, hayot va o'lim orasidagi bog'liqlikni ochib beruvchi obraz

sifatida ishlatiladi. Jumladan, Pol Osterning “Timbuktu” [16] romani itning ichki dunyosini aks ettirib, uni insoniy kechinmalar bilan uyg‘un holda tasvirlaydi.

O‘zbek adabiyotida it obrazi ko‘pincha xalq og‘zaki ijodida, mumtoz she’riyatda va zamonaviy badiiy asarlarda turli ma’nolarni ifodalagan. Xalq eposlarida it asosan himoya va sadoqat ramzi sifatida gavdalanadi. Jumladan, “Algomish” dostoni va boshqa qahramonlik eposlarida it qahramonning sodiq hamrohi bo‘lib, unga sodiqlik va himoya funksiyasini bajaradi.

Mumtoz o‘zbek adabiyotida it obrazi ayrim hollarda negativ konnotatsiyaga ham ega bo‘lgan. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida it ba’zan pastkashlik, ishonchszlik timsoli sifatida tilga olinadi. Lekin bu obraz faqat salbiy talqinda emas, balki falsafiy va axloqiy ma’nolarni ifodalovchi timsol sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida it motivi yangicha, chuqur psixologik va ijtimoiy jihatlari bilan namoyon bo‘lmoqda. Masalan, XX–XXI asr o‘zbek adabiyotida it obrazlari ko‘proq insoniy munosabatlarni, hayotdagi o‘zgarishlarni va jamiyatdagi ma’naviy inqirozni ifodalash vositasi sifatida qo’llanilgan. Ayrim adabiy asarlarda it qahramonning hayotidagi muhim burilish nuqtasini belgilovchi obraz sifatida ko‘rsatilib, inson va tabiat, inson va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi.

Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan it motivi turli kontekstlarda turlicha talqin qilinadi. Semiologik tahlil asosida it obrazi ba’zan himoya va do’stlik, ba’zan esa tahdid va xiyonatni ifodalovchi belgilar tizimiga aylanishi mumkin. Masalan, itning mavjudligi yoki yo‘qligi qahramon ruhiy holatining o‘zgarishini aks ettirish uchun vosita sifatida ishlatilishi mumkin.

Intertekstual tahlil esa it motivining adabiy asarlar orasidagi bog‘liqliklarini ochib beradi. Masalan, G‘arb adabiyotida it obrazining Odissey davridan boshlab XXI asr zamonaviy romanlariga qadar rivojlanishi bilan o‘zbek adabiyotida it obrazining xalq eposidan tortib, zamonaviy hikoya va romanlarda yangicha talqin etilishini taqqoslash mumkin.

Psixoanalitik yondashuv nuqtai nazaridan esa it motivi insonning ong osti kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lib, Freyd va Yung ta’kidlaganidek, inson ongi va ongsizligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalashi mumkin. Jumladan, Bulgakovning “It yuragi” asarida bu motiv orqali insoniyatning genetik xotirasi va ijtimoiy o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabat aks ettirilgan.

It motivi jahon adabiyotida ham, o‘zbek adabiyotida ham ko‘p qirrali va murakkab obrazlardan biri hisoblanadi. Uning turli adabiy davrlardagi o‘zgarishlari inson va hayvon, jamiyat va individuallik, sadoqat va xiyonat kabi fundamental tushunchalar bilan bog‘liq holda shakllangan.

Dunyo adabiyotida bu motiv ko‘proq postmodern va psixoanalitik yondashuvlar asosida talqin qilinayotgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida u milliy folklor va mumtoz she’riyat an’analari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Kelajak tadqiqotlar ushbu motivning zamonaviy o‘zbek nasridagi yangicha talqinlarini o‘rganish va uni global adabiy jarayonlar bilan bog‘lab tahlil qilishga yo‘naltirilishi lozim.

**Xulosa va takliflar.** Adabiyotshunoslikda motiv tushunchasi, ayniqsa, it obrazi bilan bog‘liq motivlarning tahlili turli madaniyat va davrlarda o‘ziga xos tarzda shakllangan. Dunyo adabiyotida it motivi qadimiy davrlardan boshlab, sadoqat, himoya, xiyonat, donishmandlik va boshqa ramziy ma’nolarni ifodalagan. Gomerning “Odisseya”, Dante Alighierining “Ilohiy komediya”, Mixail Bulgakovning “It yuragi”, Pol Osterning “Timbuktu” kabi asarlari bu motivning turli talqinlarini o‘z ichiga olgan.

O'zbek adabiyotida esa it motivi asosan xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot va zamonaviy nasrda uchraydi. "Alpomish" dostoni, Alisher Navoiy she'riyati va XX-XXI asr adabiyotida bu motiv turlicha talqin qilingan. O'zbek yozuvchilari it obrazini milliy mentalitet, urf-odat va falsafiy qarashlar bilan uyg'unlashtirgan. It motivi jamiyatdagi sadoqat, insoniylik va axloqiy mezonlarni aks ettiruvchi ramz sifatida tasvirlangan.

Bugungi kunda motivlar tahlili zamonaviy yondashuvlar bilan boyitilib, intertekstual, semiotik va psixoanalitik yo'naliishlarda o'rganilmoqda. Dunyo va o'zbek adabiyotidagi motiv tadqiqotlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, ularning o'zaro ta'sirini tahlil qilish hozirgi ilmiy izlanishlar uchun muhim masala hisoblanadi.

Yuqoridagi tadqiq natijasida quyidagi takliflar keltirib o'tiladi:

-*Zamonaviy yondashuvlar asosida motiv tadqiqini kengaytirish* – It motivini semiotika, intertekstualizm, postmodernizm va boshqa zamonaviy nazariyalar doirasida o'rganish ilmiy izlanishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi;

-*Dunyo va o'zbek adabiyotida motivlarning taqqosiy tahlilini chuqurlashtirish* – It motivining turli adabiy davr va makonlarda qanday rivojlanganini o'rganish, madaniy xususiyatlarini aniqlash adabiy tadqiqotlarga yangicha nazar bilan qarash imkonini beradi;

-*O'zbek adabiyotida motivlarning yangi talqinlarini kashf etish* – Zamonaviy o'zbek nasri va she'riyatida it motivining yangi ko'rinishlarini tahlil qilish va ularning adabiy jarayondagi rolini aniqlash muhim;

-*Multidisiplinar yondashuvlar asosida o'rganish* – Adabiyotshunoslikni antropologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik va semiotika bilan uyg'un holda olib borish motiv tadqiqotlariga ilmiy chuqurlik bag'ishlaydi;

-*Motiv tushunchasini xalq og'zaki ijodi va zamonaviy adabiyot o'rtasidagi bog'liqlik orqali tahlil qilish* – It obrazi xalq eposlaridan tortib, zamonaviy nasrgacha qanday rivojlanganini o'rganish, milliy adabiy merosni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shunday qilib, it motivi nafaqat adabiy obraz sifatida, balki jamiyat va inson ruhiyati haqida ma'lumot beruvchi universal fenomen sifatida ham ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'naliishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Uning dunyo va o'zbek adabiyotidagi talqinlarini yanada kengroq va chuqurroq tahlil qilish, kelajak izlanishlar uchun istiqbolli hamda dolzarb yo'naliish hisoblanadi.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. [Frazer, James George, 1854-1941](https://en.wikipedia.org/wiki/The_Golden_Bough) The Golden Bough: A Study of Magic and Religion  
[https://en.wikipedia.org/wiki/The\\_Golden\\_Bough](https://en.wikipedia.org/wiki/The_Golden_Bough)
2. Веселовский А.Н. Историческая Поэтика. Изд. 4-е. Издательство ЛКИ. Москва. 2010. ISBN [9785382011042](#)
3. Пропп В. Морфология сказки / Гос. ин-т истории искусств. — Л.: Academia, 1928. — 152 с. — (Вопр. поэтики; Вып. XII). <https://feb-web.ru/feb/skazki/critics/pms/PMS-001-.htm>
4. <https://www.jungiananalysts.org.uk/wp-content/uploads/2018/07/C.-G.-Jung-Collected-Works-Volume-9i -The-Archetypes-of-the-Collective-Unconscious.pdf>
5. Зеер Э.Ф. Психология профессий: Учебное пособие для студентов вузов. –2-е изд. перераб., доп. –М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003.
6. Силантьев И.В. Теория мотива в отечественном литературоведении и фольклористике: очерк истиориографии. Научное издание. Новосибирск: Издательство ИДМИ, 1999. -104c.

7. <https://www.degruyter.com/document/doi/10.1515/9783110805581.59/html?srslid=AfmBOoqQq06BD-vu01IAeVf9baoz9zC8pNDx0hqre8bpNdZisdUmDDGI>
8. <https://oimurschool.ru/uz/zdorove/yu-m-lotman-o-semiotike-kultury-referat-yu-lotman-teoriya/>
9. Egamov X. Motiv va syujet "XX asr o'zbek folklorshunosligi" antalogiyasi/Tuzuvchilar: O.To'laboyev va boshq. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2019. 361-b.
10. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.
11. Yo'ldoshev Q. O 'zbek modern adabiyoti: ildizlar, prinsiplar va xususiyatlar / / Filologiya masalalari. — T.: 2004. — № 2—3. 8-bet.
12. Gomerning "Odisseya" (Deluxe Hardbound Edition) – Qadimgi Yunon Epic She'riyati | Klassik adabiyot | Adabiy asarlar Hardcover – 22 avgust 2023 yil. <https://www.ubuy.uz/uz/productin/JGJZVEC90-the-odyssey-deluxe-hardbound-edition>
13. Dante. Illohiy komediya. Do'zax & Rustam Ibragimbekov. Dantening «Illohiy komediya»sida timsollar talqini. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/rustam-ibragimbekov-dantening-illohiy-komediyasida-timsollar-talqini.html>
14. Anton Chexov Rus tilidan tarjimon: Humoyun. Nashriyot: «Akademnashr». Sana: 2024 yil. Hajmi: 272 bet.
15. <https://kutubxona.samduuf.uz/download/168>
16. [Пол Остер Тимбукту. Издательство: Эксмо, Домино ISBN: 978-5-699-49497-2 2011](http://lovoread.ec/view_global.php?id=34155)

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 3 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).